

**Umarov Lutfullo Murodullayevich**  
**(Qashqadaryo VXTXQTMOI)**

**JADALLASHIB BORAYOTGAN BUGUNGI DAVRDA AXBOROT  
TEKNOLOGIYALARI VOSITALARINING O‘RNI**

Bugungi faravon hayotimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va tinchligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida yoshlarni o'qitish, ularning axborot madaniyatini rivojlantirish, mustaqil hayotga tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.

Respublikamizda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va ma'lumot uzatish tarmoqlari, internet xizmatlarini rivojlantirish, ularni dunyo standartlariga yetkazish va shu asosda axborotlashgan jamiyat sari jadal intilish maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ana shunga asosan, bugungi kunda jamiyatni axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri jamiyatimizda yashayotgan, bilim olayotgan yoki ma'lum bir sohada faoliyat ko'rsatayotgan barcha insonlarni axborot madaniyatini shakllantirishdan iboratdir.

Bugun zamonaviy axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavur etib bo'lmaydi, ya'ni u mamlakat darajasida soha rivojining muhim omillaridan biriga aylangan. Shu bois ham mamlakatimizda axborot kommunikatsion texnologiyalari va telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Fan, texnika va zamonaviy texnologiyalar rivojlanayotgan davrda ko'z o'ngimizda ro'y berayotgan taraqqiyot odimlarini barcha sohalarda bo'lgani kabi axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimida yaqqol kuzatishimiz mumkin. Hukumatimiz tomonidan mazkur sohaga eng zamonaviy vositalar joriy qilinishiga katta e'tibor qaratilganligi bois, bugun yurtdoshlarimiz ko'plab qulayliklarga ega bo'lmoqdalar. Avvallari faqatgina so'zlashuv uchun ishlatilgan telefon simidan bugun internet, tovushli aloqa va ma'lumotlar uzatish kabi turli qo'shimcha xizmatlardan foydalanish, videotelefoniya va hatto teleko'rsatuvlar ko'rish imkoni bor. Bularning barchasi so'nggi yillarda axborot texnologiya vositalari va telekommunikatsiya tarmog'ining izchillik bilan modernizatsiya qilinishi natijasida yuzaga keldi. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida hosil bo'ladigan va qavta ishlanayotgan axborotlar hajmi kun sayin ortib hamda zamonaviy kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari vositalari tez sur'atlar bilan mukammalashib va takomillashib bordi. Bunday sharoitda kishilarni axborot manbalari bilan ularni to'plash, saqlash va qayta ishlash usullari bo'yicha malakalarini, ya'ni axborot madaniyatini shakllantirish muhim, bilim va hisoblanadi. muhim vazifalardan biri va maktabgacha ta'lim muassasalari, kasb hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, shu jumladan akademik litsey professional shartlari doimiy o'zgarib turadigan mahalla markazlari ijtimoiy sharoitda ushbu vazifani amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun insonlarning turmush darajasini yaxshilash uchun ularni o'z ustida mustaqil ishlashga bolgan qiziqishi, intilishi va tayyorgarligini shakllantirish muhim hisoblanadi. Har bir kishi barcha sohalarda hosil bo'layotgan axborotlar oqimini muhimligi va zarurligini bilishi, mustaqil axborotlarni ishlashi, turli manbalardan, shu jumladan, internet tarmog'idan axborotlarni olishi, ularni tushunadigan ko'rinishda ifodalashi hamda amaliyotda samarali foydalanishi lozim. Buning uchun har bir inson nafaqat muhim axborotli bilim va malakalarga ega bo'lishi, balki madaniyatning asosiy turi – shaxsning axborot madaniyatini shakllantirgan holda hayot tarzini tashkillashtirishni ham bilishi kerak.

Kishilarning axborot madaniyati ularning informatsion dunyoqarashi, ham an'anaviy ham yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan axborotga bo'lgan talabini qanoatlantirish bo'yicha mustaqil ish faoliyatini ta'minlovchi bilim va malakalarining tizimi bilan xarakterlanadi. U kishilarning hayotiy faoliyatining muhim va asosiy tomonlarini yoritadi, ya'ni

ularning axborot madaniyatini shakllantirish, ularda doimiy ravishda bilimga bo'lgan qiziqish va intilishni uyg'otish, axborotlarni izlash, saqlash, saralash hamda olingan ma'lumotlar ustida ishlash, ularni baholash ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham bugungi kurida respublikamizda yurtboshimizning "Respublika aholisini axborot kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida tashkil etilgan va zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari bilan ta'minlangan axborot resurs markazlari katta va kichik yoshdagi kishilarning ma'naviy-ma'rifiy sohadagi bilimlari yanada yuksalishida munosib xizmat kilmokda, shu bilan birga ularni milliy g'oya, Vatanga sadoqat va muhabbat ruhida tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi salohiyatlarini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Endilikda axborot va telekommunikatsion texnologiyalari asosida sifatli va zamonaviy texnologiyalar xizmati yo'lga qo'yib, yuqori tezlikdagi aloqa tarmog'i orqali ma'lumotlar uzatish, qabul qilish va internet xizmatidan foydalanish uchun qulayliklar yaratildi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari allaqachon hayotimizdan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, uni zamon talablari asosida yo'lga qo'yish va rivojlantirish jamiyatimizda obod turmush madaniyatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanishidan xalqimiz birdek manfaatdordir.

#### **Adabiyotlar.**

1. Oripov M.Haydarov A. Informatika asoslari.-T.: "O 'qituvchi" 2002 yil.
2. Maraximov A.R., Raxmonqulova S.I., Internet va undan foydalanish.-Toshkent 2001 yil.
- 3- <http://www.vahoo.com/-enq> ommobop qidiruv tizimi.